



TALABALARNI INTELLEKTUAL BILIM OLIHGA TAYYORLASHNING ALGORITMIK KETMA-KETLIGI

To`raqulov X.A

*Pedagogik ta'lim xalqaro fanlar
Akademiyasi akademigi t.f.d, professor.*

JDPU. Tel.: +998-91-566-42-82

e-mail: Turaqulov77@mail.ru

Buvrayev A.R

JDPU, magistr

Tel.: +998-97-025-41-42

e-mail: buvrayev@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada intellektual bilimning dolzarbligi, talabalarning intellektual bilim olishga tayyorlashning algoritmik ketma –ketligi, hozirgi ta'lim tizimida intellektual bilimga qo'yilgan talablar, talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashning o'ziga xos ijodiy yondashuvlari haqida.*

Kalit so'zlar: *intellektual, kasbiy faoliyat, integrativ yondashuv, kasbiy faoliyat, ilmiy – metodik, tarqatma material.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются актуальность интеллектуальных знаний, алгоритмическая последовательность подготовки учащихся к интеллектуальным знаниям, требования к интеллектуальным знаниям в действующей системе образования, уникальные творческие подходы к подготовке учащихся к интеллектуальной деятельности.*

Abstract: *This article discusses the relevance of intellectual knowledge, the algorithmic sequence of preparing students for intellectual knowledge, the requirements for intellectual knowledge in the current education system, and unique creative approaches to preparing students for intellectual activity.*

Ключевые слова: *интеллектуальная, профессиональная деятельность, интегративный подход, профессиональная деятельность, научно-методический, раздаточный материал.*

Key words: *intellectual, professional activity, integrative approach, professional activity, scientific-methodical, distribution material.*

Ma'lumki, hozirda dunyo miqiyosidagi intellektual rivojlanishlar bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning mazmun – mohiyatini muntazam ravishda intelektuallashtirib borishni talab qiladi. Bu esa talabalarni intellektual kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik va psixologik asoslarini aniqlashtirish, ta'lim jarayonida talabalarning ikkinchi darajali ma'lumotlarga nisbatan ijodiy – kasbiy yondashuvlarini rivojlantirishga qaratilgan alohida e'tibor demakdir. Bu e'tiborni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalaridagi ijodiy muhit va talabalarning kasbiy





faoliyatida innovasion va integrativ yondashuvlarni takomillashtirish ularni intellektual kasbiy faoliyatga tayyorlashda va ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Bu borada mamlakatimizda e'tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda, ya'ni oliy ta'lim sifatini oshirish, kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash ishlarini bajarishdagi ta'lim jarayoni ilm – fan va texnika – texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlari bilan integratsiyalanmoqda. Natijada bular orqali innovasion rivojlangan, raqobatbardosh zamonaviy kadrlar tayyorlashga mustahkam zamin tayyorlanmoqda. Bular tufayli esa talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlash bo'yicha ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlikka erishishga, ularning jahon ta'limi talablari bilan mosligi hamda amaliy – kasbiy hayotdagi o'rnini qay darajada topayotganliklari ham aniqlanib boriladi.

Taqdim etilayotgan ushbu maqolada ham aynan talabalarni jahon ta'limi talablarini e'tiborga olgan holda intellektual faoliyatga tayyorlashga qaratilgan bo'lib, unda bo'lajak o'qituvchilarning intellektual – kasbiy faoliyatga tayyorlashning algoritmik ketma – ketligi ilmiy – metodik jihatdan asoslanadi.

Ushbu yo'nalishda olib borgan izlanishlarimiz va kuzatishlarimiz natijalarining ko'rsatishicha talabalarni intellektual salohitli qilib tayyorlashning asosiy maqsadi ulardagi aql – idrok, zakovat, ma'naviy jihatdan yetuklik, tasavvur, sinchikovlik kabilar orqali ularni jamlangan materiallarini bilishga (taqqoslash, abstraksiyalash, hukm chiqarish va shu kabilar) mavjud bilimni tahliliy (kerak bo'lganda tanqidiy) o'rganishga tayyorlashlardan iborat bo'ladi va ularni quyidagi ketma – ketlikda amalga oshirgan ma'qul ekan:

- talabalarning boshlang'ich ta'lim bo'yicha o'rganishi lozim bo'lgan fanlar asoslari bilan tanishligi va ular bo'yicha egallangan bilimlarini o'zi o'qiydigan fanni bayon qilishda samarali foydalana olish malakasiga ega bo'lishi lozim;

- talaba istiqbolli va samarali pedagogik texnologiyalar asoslarini, ayniqsa o'zlashtirishi lozim bo'lgan fanlar bo'yicha innovasion metod va texnologiyalarni joriy eta olishlik ko'nikmalarini puxta egallagan bo'lishi lozim;


- zamonaviy talaba o'zining rivojlanishini, pedagogik qobiliyati va mahoratini dinamik ravishda oshirib borishini odatiy holga aylantirish;

- zamonaviy talaba ijtimoiy jihatdan ham bilimdon bo'lmog'i lozim, ya'ni u muntazam ravishda jamiyatimizdagi va davlatimizdagi ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlardan xabardor bo'lishi lozim;

- zamonaviy talaba xorijiy tillarni bilmog'i va raqamli texnologiyalar vositalari bilan "tillasha" oladigan bo'lmog'i lozim;

- talaba boshlang'ich ta'limga oid davlat huquqiy – me'yoriy hujjatlar bilan tanish bo'lishi kerak va ulardan amaliy – kasbiy faoliyatda foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

- talaba mutaxassislik (ixtisoslik) va maxsus fanlar bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma, o'quv – uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materiallar va slaydlar (virtual





stendlar ham) yarata olish ko'nikmasiga ega bo'lishligi hamda fan bo'yicha eng so'nggi yangiliklar va ularning amaliy ahamiyatlari haqida mukammal bilimlarga ega bo'lishi lozim;

- talabalar o'zining kelajakdagi kasbiy faoliyatida o'zi o'rganadigan fani bo'yicha to'liq DTS talablarini bilishi kerak;

- talaba boshlang'ich ta'lim bo'yicha DTSdagi bilim, ko'nikma va malakalarga oid talablarni to'liq bajaradigan bo'lishi kerak va shu kabilar.

Bu talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashning har bir ketma – ketligi o'ziga xos ijodiy yondashuvni talab etadi. Talabalarni intellektual bilim olishga tayyorlashni quyidagi algoritmik ketma – ketlikda olib boriladi:

O'zbekiston Respublikasining “Ilm – fan va ijodiy qobiliyat to'g'risida”gi qonunini hisobga olgan holda talabalarni intellektual bilim olishga tayyorlash.

Bu yo'nalishning **asosiy maqsadi** axborot makonida ilm – fan va texnika – texnologiyalar asoslari va yutuqlarini ommalashtirish, shuningdek, ilm – fan va ilmiy faoliyat sohasiga oid tegishli tadbirlarni targ'ib etish bo'yicha chora – tadbirlarni belgilab olishdan iborat bo'ladi.

Ushbu yo'nalishga tegishli ijodiy faoliyat quyidagi ketma – ketlikda olib boriladi:

- ilm – fan va ijodiy faoliyatni rivojlantirish orqali innovasion rivojlangan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini tayyorlashga erishish;

- talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ilm – fan va innovasion texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash va ularga mos resurslarni maqsadli yo'naltirishga doimo e'tiborda bo'lish;

- talabalarda Davlat ilmiy dasturlarini ishlab chiqish, asoslangan tashabbus va loyihalarni qo'llab – quvvatlashga havasni uyg'otish;

- talabalarda ilm – fan va ilmiy faoliyat sohasida davlat xususiy sheriklikni qo'llab – quvvatlashga ishtiyiq uyg'otishga doimo e'tiborda bo'lish;

- talabalarni ilm – fanga intilish va uning jozibadorlik muhitini shakllantirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish, yosh iste'dod egalarini tanlashga tayyorlash;

- talabalarning intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarini muhofaza qilish;

- talabalarni ilm – fan va ilmiy faoliyat sohasini moliyalashtirishni optimallashtirishga o'rgatish;

- talabalarni “fan ta'lim amaliyot” tizimining uzviy bog'liqligini ta'minlash va undagi manfaatdorlikni oshirish mezonlarini ishlab chiqishga o'rgatish;

- talabalarni ilm – fan va ijodiy faoliyat sohasining axborot makoni bilan uzviy bog'liqligini ta'minlashga o'rgatish;

- talabalarni ilm – fan va ijodiy faoliyat sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga oid manbalarni tahliliy o'rganib, ulardan amaliy faoliyatda foydalanishga o'rgatish va shu kabilar.

Bu yo'nalishda talabalarning ijtimoiy bilimdonligi asosiy e'tiborda bo'ladi.





Ijtimoiy bilimdonlik – bu eng avvalo, obro' – e'tibor, ya'ni ilmiy – pedagogik xodimning ijtimoiy jihatdan ma'lum axloqiy tamoyillarga egaligi, shaxsiy tajriba va kuzatishlar asosida o'z mustaqil fikrlarini shakllantira olish, boshqa shaxslarga ta'sir ko'rsata olishligi, shaxslaroaro va yakka shaxs bilan guruh orasidagi muhitlarini yaxshilay olish kabi qobiliyat majmuasidir.

Talabalarni o'quv – metodik va o'quv – axborotli ta'minotlarni ishlab chiqishga tayyorlash.

Bu yo'nalishning asosiy maqsadi negizida talabalarni intellektual bilim olishga tayyorlar jarayonida o'quv – metodik va o'quv – axborotli ta'minotlardan uzluksiz va uzviy ravishda foydalanishga erishish, kelajakda, ya'ni ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlar uchun ham javob bera oladigan kadrlar tayyorlash siyosatining ustuvorligiga erishish, ta'limda sifat o'zgarishlariga hamda yuqori samaradorlikka erishish borasidagi ilmiy – texnikaviy va informasion ma'lumotlar bazasini yaratish, DTSdagi sifat ko'rsatkichiga va samaradorlikka erishishning ilmiy uslublarini ishlab chiqish, bu sohadagi optimal variantlarni tanlashga istiqbolli ilmiy – uslubiy ishlanmalar tayyorlashga oid ijodiy faoliyat yotadi.

Ushbu yo'nalishga tegishli ijodiy faoliyat quyidagi ketma – ketlikda olib boriladi:

- talabalarni intellektual bilim olishga tayyorlashga oid davlat ta'lim standartlari, boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy – huquqiy hujjatlar: o'quv rejalari; ishchi o'quv rejalari; o'quv dasturlari; ishchi o'quv dasturlari; taqvimiy o'quv rejalari; ma'ruzalar matni; kurs ishlarini tayyorlash bo'yicha ko'rsatma va yo'riqnomalar; didaktik materiallar (didaktik materiallar, sprovochnik ma'lumotlar, tarqatma materiallar, slaydlar, vertual stendlar va shu kabilardan) dan amaliy faoliyatda foydalanishga qulaylikni ta'minlash maqsadida tayyorlanadigan yo'riqnoma va ko'rsatmalarni tayyorlash;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovasion ta'lim texnologiyalari hamda raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlikdagi boshlang'ich ta'lim jarayonini muhitini yaratish;

- talabalarning kompyuter savodxonligini to'liq egallash negizida ular axborot madaniyatining shakllanish jarayonini og'ishmay o'quv jarayoniga tadbiiq eta olishini ta'minlash uchun o'quv muassasi qoshida maxsus uslubiiy markaz tashkil etish;

- elektron o'quv adabiyotlari: elektron darslik; elektron o'quv qo'llanma; o'qitiladigan fanlar bo'yicha elektron portfel va elektron qomusiiy lug'at kabilarni tayyorlash va ulardan talabalarni bilim olishning intellektual tizimini tayyorlashda foydalanishga oid metodikalarni ishlab chiqish;

- elektron o'quv adabiyotlarini yaratish malakasiga ega bo'lgan intellektual salohiiyatli talabalarni ta'lim muassasasi qoshidagi innovasion – integrativ ta'lim markazi faoliyatiga ko'proq jalb qilishga erishish;

- talabalarni tayyorlashga oid mutaxassislik (ixtisoslik) va maxsus fanlarni o'qitishga oid raqamli ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish;





- talabalarning kompyuter savodxonligi darajalarini zamonaviy talablar asosida muntazam ravishda takomillashtirib borishga erishish, chunki hayotimizning deyarli barcha jabhalari raqamli texnologiyalardan foydalanishga bog'liq bo'lmoqda;

- talabalarni intellektual bilim olishga tayyorlashga oid "Didaktik protfel" nomli ma'lumotlar bazasini tayyorlash;

- talabalarni intellektual bilim olishga tayyorlash uchun "INTERNET" dan foydalanib boshlang'ich ta'limga oid fanlarga tegishli materiallarni to'plash va ulardan foydalana olish malakalarini beruvchi to'plamlarni tashkil etish va shu kabilar.

Bu yo'nalishda ko'proq talabalarning metodik jihatdan bilimdonligi va axborot madaniyatligiga e'tibor beriladi. Bunga sabab ular tufayligina innovasion rivojlangan intellektual salohiyatli talabalarni tayyorlash imkoniyyati kafolatlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nurillayev O. O'quvchilarning bilimi va ko'nikmalarini texnologik vositalar yordamida shakllantirishning tashkiliy asoslari // "Maktabvahayot". IMJ. - T.: 2011. - № 7 - 8. - B. 36 - 38.

2. [Sharipov Sh.S. va boshq. Bilim olishning intellektual tizimlarini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti. - t: "Fan", 2011, 206bet.].

3. Sharipov Sh.S. va boshq. Bilim olishning intellektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti. Mas'ul muxarrir: B.Begalov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. - T.: "Fan", 2011. - 208 b.

4. [Jo'rayev R.H., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. - T., "Voris-nashriyoti", 2006, 263 b.].

5. Savenkov, A. I. Kasbiy muvaffaqiyatlarga olib keladigan aql-idrok, kelajakdagi mutaxassisning kasbiy qobiliyatini rivojlantirish omili sifatida / A. I. Savenkov, L. M. Narikbayeva // Iqtidorli bola. - 2007. - № 6. S. 22-36.

